

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 540 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQUVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQUVATIDAN JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Putatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY Tajribalari	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB Olish TEKNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIBOYO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: MEJDUNARODNYY OPIYT I REGIONALNAYA ADAPTIYATSIYA	471
Usmanova Aziza Bahodirovna	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqin To'ymurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI	482
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA BANK KREDITLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	489
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O'RNI	494
Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI	500
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
MILLIY SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INSON KAPITALINING O'RNI	506
Yunusov Foziljon G'ulomqodirovich	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINI FLOTATSIYALASHDA REAGENT REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH	511
Shodiyev Abbas Ne'mat o'g'li, Egamberdiyev Baxtiyor Barat o'g'li	
EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI BO'YICHA MUDDATI O'TGAN DEBITOR QARZDORLIKNI ANIQLASHDA RAQAMLI SOLIQ NAZORATI MONITORINGINING QO'LLANILISHI VA SAMARADORLIGI	517
Tashmuxe'dov Dilmurod Mirabzalovich	



SOLIQ SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI	522
Jurayev Xusan Atamuratovich	
IMPROVING MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS	528
Sobirov A. Abdurasul	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI	533
Masharipov Sardorbek Farxadovich	



MINTAQADA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI

Masharipov Sardorbek Farxadovich

Urganch Ranch texnologiya universiteti katta o'qituvchisi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU tadqiqotchisi

E-mail: sardorbekmf74@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining o'rni hamda ularni rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida investitsiya oqimlarining hududiy taqsimlanishi, ularning kichik biznes faoliyatiga ta'siri, shuningdek bandlik darajasi va yalpi hududiy mahsulot hajmini oshirishdagi roli o'rganilgan. Shu bilan birga, davlat va xususiy investitsiyalarning o'zaro uyg'unligi, investitsiya muhitini yaxshilash mexanizmlari hamda mintaqaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari mintaqalarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarning muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy rivojlanish, kichik biznes, tadbirkorlik, investitsiyalar, investitsiya muhiti, bandlik, iqtisodiy o'sish.

Abstract. This article examines the role of small business and entrepreneurship in regional economic development and emphasizes the importance of investments in ensuring their sustainable growth. The study analyzes the impact of investment flows on small business development, employment levels, and the growth of gross regional product. Particular attention is paid to the interaction between public and private investments, the improvement of the investment climate, and regional mechanisms for supporting entrepreneurship. The findings demonstrate that investments are a key factor in stimulating entrepreneurial activity and ensuring sustainable socio-economic development at the regional level.

Keywords: regional development, small business, entrepreneurship, investments, investment climate, employment, economic growth.

Аннотация. В статье рассматривается роль малого бизнеса и предпринимательства в региональном экономическом развитии, а также значение инвестиций в обеспечении их устойчивого роста. В ходе исследования проанализировано влияние инвестиционных потоков на развитие малого бизнеса, уровень занятости населения и объем валового регионального продукта. Особое внимание уделено взаимодействию государственных и частных инвестиций, формированию благоприятного инвестиционного климата, а также механизмам поддержки предпринимательства на региональном уровне. Результаты исследования подтверждают, что инвестиции являются ключевым фактором активизации предпринимательской деятельности и обеспечения устойчивого социально-экономического развития регионов.

Ключевые слова: региональное развитие, малый бизнес, предпринимательство, инвестиции, инвестиционный климат, занятость, экономический рост.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan iqtisodiy sharoitda mintaqaviy rivojlanish masalalari davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlik mintaqalar iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirishda muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning moslashuvchanligi va innovatsion faolligini ta'minlab, bozor talablariga tezkor javob berish xususiyati bilan ajralib turadi.

Mintaqalarda kichik biznes va tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi, avvalo, investitsiya resurslarining mavjudligi va ularning samarali yo'naltirilishiga bevosita bog'liq. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya oqimlarining hududiy taqsimlanishi va ularning kichik biznes faoliyatiga ta'sirini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qulay investitsiya muhiti shakllantirilgan mintaqalarda tadbirkorlik faolligi yuqori bo'lib, bu o'z navbatida yalpi hududiy mahsulot hajmining oshishi hamda bandlik darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish chora-tadbirlarining samaradorligi mintaqaviy rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham mintaqalarni kompleks rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hududlarda investitsiya faolligini oshirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash masalalari strategik ahamiyat kasb etmoqda. Biroq investitsiyalarning kichik biznes rivojiga real ta'siri, ularning samaradorligi hamda mintaqalar kesimidagi farqlari yetarlicha chuqur empirik tahlilni talab etadi.

Shu bois, mazkur maqolada mintaqada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning o'рни va ahamiyatini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilish, investitsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlarini aniqlash va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar asosan investitsiyalar, innovatsiyalar hamda institutsional muhit bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Klassik va neoklassik iqtisodiy yondashuvlarda kapital jamg'arilishi va investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Xususan, neoklassik o'sish nazariyasida kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib chiqqan yondashuvlar orasida innovatsion nazariyalar alohida o'rin egallaydi. Jumladan, Joseph Schumpeter tadbirkorni iqtisodiy tizimda "ijodiy vayronkorlik" jarayonini amalga oshiruvchi asosiy subyekt sifatida talqin qilib, investitsiyalarni innovatsiyalarni joriy etishning muhim moliyaviy manbai deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, kichik biznes subyektlari nisbatan kam kapital talab qiluvchi, biroq yuqori innovatsion salohiyatga ega bo'lgan faoliyat turlari orqali mintaqaviy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda investitsiyalarning kichik biznes rivojiga ta'siri ko'proq mintaqaviy va institutsional omillar bilan bog'liq holda o'rganilmoqda. Robert Solow modeli doirasida kapitalning hududlar o'rtasida notekis taqsimlanishi iqtisodiy rivojlanish sur'atlarida farqlarni yuzaga keltirishi qayd etilgan. Keyingi empirik tadqiqotlarda esa ushbu farqlarni kamaytirishda investitsiya muhitining sifati, moliyaviy infratuzilma hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi institutlarning roli kuchli ekanligi isbotlangan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda kichik biznesni moliyalashtirish masalalari bank kreditlari, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va davlat subsidiyalari kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar investitsiya resurslariga kirish imkoniyatining kengayishi tadbirkorlik subyektlarining barqarorligi va bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirishini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, mintaqaviy darajada investitsiya oqimlarining konsentratsiyalashuvi ayrim hududlarda tezkor o'sishni ta'minlagan holda, boshqa mintaqalarda rivojlanish tafvutlarini kuchaytirishi mumkinligi qayd etiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari asosan hududiy rivojlanish, bandlik va aholi daromadlarini oshirish bilan bog'liq holda yoritilgan. O'zbekiston sharoitida olib borilgan ilmiy ishlar kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ortib borayotganini, biroq investitsiya faolligi hududlar kesimida notekis ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda davlat investitsiya dasturlari, imtiyozli kreditlash hamda soliq rag'batlari kichik biznes rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi, ammo ularning samaradorligini oshirish zarurligi qayd etiladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning kichik biznes va tadbirkorlik rivojiga ta'siri masalasi ko'plab tadqiqotlarda umumiy yoritilgan bo'lsa-da, mintaqalar kesimida investitsiya oqimlarining real samaradorligi va ularning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri yetarlicha chuqur empirik tahlil qilinmagan. Ayniqsa, investitsiyalarning bandlik, ishlab chiqarish hajmi va tadbirkorlik faolligiga kompleks ta'sirini baholash dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Mazkur holat ushbu tadqiqotda investitsiyalar va kichik biznes rivoji o'rtasidagi bog'liqlikni mintaqaviy



yondashuv asosida chuqurroq o'rganish, mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot mintaqalarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning rolini aniqlash va baholashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi investitsiyalar, tadbirkorlik hamda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli tahlil qilish imkonini beruvchi nazariy, empirik va statistik usullar uyg'unligiga asoslanadi.

Tadqiqotning nazariy asosi iqtisodiy o'sish va tadbirkorlik nazariyalariga tayanadi. Xususan, neoklassik iqtisodiy o'sish nazariyasiga ko'ra, kapital jamg'arilishi va investitsiyalar ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, mehnat unumdorligining oshishiga hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi (Robert Solow – 1956). Ushbu yondashuv mintaqalar kesimida investitsiyalarning notekis taqsimlanishi iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlarni yuzaga keltirishini izohlaydi.

Shuningdek, tadbirkorlikning innovatsion tabiatini asoslovchi nazariy yondashuvlar ham tadqiqot metodologiyasida muhim o'rin tutadi. Joseph Schumpeter (1934) tomonidan ilgari surilgan "ijodiy vayronkorlik" konsepsiyasiga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati yangi texnologiyalar va biznes modellarini joriy etish orqali iqtisodiy tizimni sifat jihatidan yangilaydi. Bu jarayonda investitsiyalar innovatsion faoliyatning asosiy moliyaviy manbai sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv kichik biznes subyektlarining mintaqaviy iqtisodiyotda muhim o'sish nuqtalariga aylanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, statistik guruhlash, taqqoslash, dinamik va strukturaviy tahlil usullari qo'llanildi. Ushbu usullar investitsiya jarayonlari va kichik biznes rivojlanishi o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlashga xizmat qildi (Gujarati – 2011).

Mintaqaviy yondashuv asosida investitsiyalarning hududlar kesimidagi taqsimlanishi, kichik biznes subyektlari sonining o'zgarishi, bandlik darajasi va yalpi hududiy mahsulot hajmidagi dinamik o'zgarishlar tahlil qilindi. Statistik tahlil investitsiya faolligi yuqori bo'lgan hududlarda kichik biznes rivoji va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik qismida ko'p omilli regressiya tahlili usuli qo'llanildi. Ushbu yondashuv investitsiyalarning kichik biznes rivojiga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi (Jeffrey Wooldridge – 2016). Modelda bog'liq o'zgaruvchi sifatida kichik biznes rivojlanish ko'rsatkichi tanlandi bo'lib, u kichik biznes subyektlari soni yoki ularning ishlab chiqarish hajmi orqali ifodalandi.

Mustaqil o'zgaruvchilar quyidagilardan iborat:

- investitsiyalar hajmi (INV);
- bandlik darajasi (EMP);
- sanoat ishlab chiqarishi hajmi (IND);
- eksport ko'rsatkichlari (EXP).

Empirik modelning umumiy funksional ko'rinishi quyidagicha ifodalandi:

$$KB = f(INV, EMP, IND, EXP)$$

Mazkur model investitsiyalar va boshqa makroiqtisodiy omillarning kichik biznes rivojiga ta'sirini aniqlash, ularning nisbiy ahamiyatini baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda foydalanilgan statistik ma'lumotlar milliy statistika organlari, rasmiy davlat hisobotlari hamda xalqaro ochiq ma'lumotlar bazalaridan olindi. Xususan, mintaqaviy investitsiyalar, bandlik va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari rasmiy statistik manbalarga tayangan holda shakllantirildi. Ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida ular vaqt qatorlari asosida qayta ishlanib, inflyatsion ta'sirdan tozalandi hamda solishtirma narxlarda ifodalandi (World Bank – 2022).

Mazkur metodologik yondashuv investitsiyalar va kichik biznes rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni nafaqat statistik jihatdan, balki mintaqaviy iqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan ham baholash imkonini beradi. Olingan empirik natijalar asosida investitsiya siyosatini takomillashtirish, hududiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning dastlabki bosqichida mintaqalar kesimida kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha deskriptiv statistik tahlil amalga oshirildi. Ushbu tahlil investitsiyalar hajmi, kichik biznes subyektlari soni, bandlik darajasi hamda sanoat va eksport ko'rsatkichlarining umumiy dinamikasini aniqlashga xizmat qildi (1-jadval).

1-jadval. Mintaqalar kesimida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlari

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat	Minimal	Maksimal
Investitsiyalar (mlrd so'm)	8 450	2 130	21 670
Kichik biznes subyektlari (ming ta)	38,6	14,2	92,5
Bandlik darajasi (%)	68,4	54,1	79,3
Sanoat ishlab chiqarishi (mlrd so'm)	12 980	3 450	34 200
Eksport (mln AQSh dollari)	610	120	1 840

Jadvaldan ko'rinadiki, investitsiyalar hajmi va kichik biznes subyektlari soni mintaqalar bo'yicha sezilarli farqlarga ega. Investitsiya faolligi yuqori bo'lgan hududlarda kichik biznes subyektlari soni va bandlik darajasi ham nisbatan yuqori ekani kuzatildi. Bu holat investitsiyalar va tadbirkorlik rivoji o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini dastlabki bosqichdayoq tasdiqlaydi.

Keyingi bosqichda asosiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil o'tkazildi(2-jadval).

2-jadval. O'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari

Ko'rsatkich	KB	INV	EMP	IND	EXP
KB	1,00	0,74	0,69	0,71	0,63
INV	0,74	1,00	0,66	0,78	0,72
EMP	0,69	0,66	1,00	0,61	0,58
IND	0,71	0,78	0,61	1,00	0,76
EXP	0,63	0,72	0,58	0,76	1,00


Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes rivojlanishi (KB) bilan investitsiyalar hajmi (INV) o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r = 0,74$). Bu holat investitsiya oqimlari oshgani sari kichik biznes subyektlari faolligi ham ortishini anglatadi.

Empirik tahlilning asosiy bosqichida ko'p omilli regressiya modeli baholandi. Olingan natijalar investitsiyalarning kichik biznes rivojiga ta'sirini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini berdi(3-jadval).

3-jadval. Ko'p omilli regressiya natijalari


O'zgaruvchi	Koeffitsient	t-statistika	p-value
ln(INV)	0,41	3,72	0,003
ln(EMP)	0,28	2,95	0,009
ln(IND)	0,33	3,21	0,005
ln(EXP)	0,19	2,18	0,031
Doimiy had	1,12	1,84	0,072
R ²	0,87		

Regressiya natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hajmi kichik biznes rivojiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. ln(INV) koeffitsientining 0,41 ga teng bo'lishi investitsiyalar 1 foizga oshganda kichik biznes rivojlanish ko'rsatkichi o'rtacha 0,41 foizga ortishini anglatadi. Modelning aniqlik darajasi yuqori bo'lib, R² ko'rsatkichi 0,87 ni tashkil etdi(1-rasm).



1-rasm. Investitsiyalar va kichik biznes subyektlari soni o'rtasidagi bog'liqlik

Ushbu diagrammada gorizontal o'qda investitsiyalar hajmi, vertikal o'qda esa kichik biznes subyektlari soni aks ettirilgan. Diagramma ijobiy nishablikka ega bo'lib, investitsiyalar oshgani sari tadbirkorlik faolligi ham ortib borishini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Mintaqalar kesimida investitsiyalar va bandlik darajasi

Ustunli diagramma shaklida tasvirlangan mazkur rasmda investitsiya hajmi yuqori hududlarda bandlik darajasi sezilarli darajada yuqori ekanini yaqqol ko'rinadi.

Olingan empirik natijalar investitsiyalar kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda markaziy omil ekanligini tasdiqlaydi. Investitsiya faolligi yuqori bo'lgan mintaqalarda tadbirkorlik subyektlari soni, bandlik darajasi va ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Shu bilan birga, sanoat va eksport ko'rsatkichlari investitsiyalar ta'sirini kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalar mintaqaviy iqtisodiy siyosatda investitsiya resurslarini kichik biznesga yo'naltirish, moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot mintaqalarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni va ahamiyatini kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot jarayonida nazariy qarashlar empirik tahlillar bilan uyg'unlashtirilib, investitsiya jarayonlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri mintaqalar kesimida chuqur o'rganildi. Olingan natijalar investitsiyalar kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi omili ekanini ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqladi.

2022–2023-yillar bo'yicha O'zbekiston mintaqalari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, investitsiyalar hajmi yuqori bo'lgan hududlarda kichik biznes subyektlari soni, bandlik darajasi hamda ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Regressiya tahlili natijalariga ko'ra, investitsiyalar kichik biznes rivojiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori elastiklikka ega ekanligi aniqlandi. Bu holat investitsiyalarni mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatining markaziy instrumenti sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar kichik biznes rivojiga faqat moliyaviy resurs sifatida emas, balki ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish orqali tizimli ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya oqimlari hisobiga kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanib, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligi ortadi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiyotning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tahlil natijalari investitsiyalar va bandlik o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Investitsiya faolligi yuqori bo'lgan hududlarda yangi ish o'rinlari yaratilishi tezlashib, aholi daromadlari va iqtisodiy faolligi oshadi. Shu jihatdan, kichik biznesni investitsiyalar orqali rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon mintaqalarda ishsizlik darajasini kamaytirish va hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida investitsiyalar samaradorligi sanoat ishlab chiqarishi va eksport faoliyati bilan o'zaro bog'liq holda kuchayishi aniqlanib, bu kichik biznesni mintaqaviy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Kichik biznesning sanoat kooperatsiyasi va eksport salohiyatini oshirish investitsiyalarning iqtisodiy qaytishini yanada kuchaytiradi hamda hududlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda investitsiya resurslarini kichik biznes va tadbirkorlikka yo'naltirish ustuvor vazifa bo'lishi lozimligini asoslaydi. Ayniqsa, investitsiya faolligi past bo'lgan hududlarda moliyaviy rag'batlar, imtiyozli kreditlash mexanizmlari va infratuzilma loyihalarini kengaytirish orqali mintaqalararo iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish mumkin. Bu borada davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tadqiqot investitsiyalarning samaradorligi bevosita institutsional muhit, boshqaruv sifati va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Demak, investitsiya siyosatini amalga oshirishda nafaqat moliyaviy resurslar hajmini oshirish, balki biznes muhitini yaxshilash, tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish hamda tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot mintaqalarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Investitsiyalarni maqsadli va samarali yo'naltirish orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, bandlikni oshirish hamda hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin. Tadqiqot natijalari kelgusida investitsiyalarning tarmoq va hududlar kesimidagi samaradorligini chuqurroq o'rganish, shuningdek, raqamli va yashil investitsiyalarning kichik biznes rivojiga ta'sirini baholash uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023). Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Toshkent: Stat.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023). Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va investitsiya faolligi bo'yicha hisobot. Toshkent.
4. Yusupov, Q. (2018). Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
5. Abdurahmonov, K. va Xolmo'minov, S. (2020). Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyoti. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Iskandarov, B. (2019). "Hududiy rivojlanishda investitsiyalarning o'rni". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(2), 45–52.
7. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Solow, R. M. (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth". The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94.
9. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Boston: Harvard Business School Press.
10. Gujarati, D. N. (2011). Econometrics by Example. New York: Palgrave Macmillan.
11. Wooldridge, J. M. (2016). Introductory Econometrics: A Modern Approach. 6th edn. Boston: Cengage Learning.
12. Beck, T. and Demirgüç-Kunt, A. (2006). "Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint". Journal of Banking & Finance, 30(11), 2931–2943.
13. Audretsch, D. B. and Thurik, A. R. (2001). "Linking Entrepreneurship to Growth". OECD Science, Technology and Industry Working Papers, No. 2001/02.
14. World Bank (2022). World Development Indicators. Washington, DC: World Bank.
15. OECD (2021). Entrepreneurship Policies through a Regional Lens. Paris: OECD Publishing.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100